



Konstitutsiya bilan bir kun

Sulaymonova Gulinura

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti 1-kurs talabasi

Jasur bugun boshqa kunlardan farqli o'laroq qushlarning quvnoq qo'shig'idan uyg'onib, derazasidan boqib, hayotining tinch va osoyishta kechayotganidan bag'oyatda quvondi. Uning mo'may daromadli ishi, baxtli oilasi va shinamgina uyi bor edi. Shular uchun bomdod namozida Xudoga shukr keltirdi. O'zi uning ilk konstitusiyaviy erkinligi mana shu bomdod namozidan boshlangan edi. Chunki Konstitutsiyaning 35-moddasida vijdon erkinligi hamma uchun barobar ta'minlanib qo'yilgan. Lekin umrida biron marta ham Konstitutsiyasini varaqalab ko'rmagani uchun, u zavqlanayotgan mana shu barcha qulayliklar eng asosiy qonun hisoblanmish Konstitutsiyaning kafolati ekanligini anglamasdi. Ammo uning hayotining har bir jabhasida ushbu qonunning ta'siri sezilmay qolmasdi. Bugun esa Jasur e'tibordan chetda qoldirayotgan oliy hujjatning uning bir kunlik hayotidagi roli haqida u bir kun davomida amalga oshiradigan ishlari orqali tahlil qilamiz.

Yoqimli havodan bahramand bo'lgach, har doimgidek Telegramdagi xabarlarga birma-bir ko'z yugurtirib chiqdi, chet elda sodir bo'layotgan olamshumul kashfiyotlarni ko'rib, hayratlandi. U jahon internet tarmog'idan foydalanish huquqiga ega edi. Keyin esa Xga(sobiq Twitter) kirib mahallasidagi yo'llarning ahvoli og'ir ekanligidan shikoyat qildi. Uning harakatlarining barchasi Konstitutsiyaning 33-moddasida belgilab qo'yilgan axborotdan foydalanish va so'z erkinligi huquqlarining amaldagi ifodasi edi. Soatning 8:00ga qarab shoshilayotganini ko'rib, xotinidan nonushta tayyorlashni so'radi. Oila davrasida mazali tushlikdan zavqlanayotgan payti, xotini yig'lamsirab turardi. Jasur g'amginligining sababini so'raganda xotini ishxonasidagi rahbari uni hamkasblari o'rtasida bo'ladigan barcha voqea hodisalarni unga oqqizmay-tomizmay yetkazishga majburlabdi, yo'qsa ishdan bo'shataman deb dag'dag'a qilgan ekan. Jasurning huquqiy ongi yetarlicha rivojlanmagani uchun, xotining muammosiga yechim topib berolmadi. Lekin Konstitutsiyaning 21-moddasida hech kimga uning roziligisiz, qonunda belgilanmagan majburiyatni yuklash mumkin emasligi to'g'risidagi modda aynan yuqoridagi moddani huquqiy yechimi edi. Ishga ketayotib, farzandalarini ham Konstitutsiyanining 50-moddasi orqali kafolatlangan bepul umumiy ta'lim olish uchun maktablarga tashab o'tdi. Keyin Italiyada o'qiyotgan o'g'lidan kelgan xabarni o'qib, ancha yuragi xotirjam tortdi. Xabarda o'gli yuqotib qo'ygan passportini konsullik yordamida qayta tiklagani haqida yozilgandi. Ushbu xabarda aslini olganda bosh qomusimizda bayon etilgan 23-moddadagi O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarini mamlakat ichkarisida ham, uning tashqarisida ham birdak himoyalaydi degan so'zlarning ro'yobga chiqarilishi edi. Bolalarini maktabga tashlagandan keyin, toki ishiga yetib borguncha radio tinglab ketdi. Radioda siyosiy partiyalar uchun saylov bo'layotgani va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

har bir kishining ovozi muhim ahamiyat kasb etishi bod-bod takrorlanardi.

Jasur esa " Bitta menmi, ana boshqalar borsin, ishim boshimdan oshib yotibdi" dedi-da, uning o'rniga musiqa eshitib ketdi. Jasur nafaqat 128-moddadagi har bir fuqaro saylash huquqi va o'z xohish irodasini erkin bildirish huquqidan, balki mana shu siyosiy partiyalar orqali davlat va jamoat ishlariga bilvosita ishtirok etish shaklidan ham voz kechdi. Korxonasiga yetib borgach, o'tgan kuni ish jarayonida sinib qolgan shlemi o'rniga boshqa shlemi berishlarini so'rab rahbariga murojaat qildi. Ammo rahbari boshqa shlem berilmasligini, agar berilgan taqdirda ham uning maoshidan ushlanib qolishini aytdi. Jasur xavfsizgim o'zimga kerak-da, boshqa kimga kerak deb maoshining bir qismidan voz kechishga rozi bo'ldi. Vaholanki, Konstitutsiyaning 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega ekanligi kafolatlanib qo'yilgan. Shuningdek Jasur o'zining shu va shunga o'xshash mehnatga oid huquqlarini kasaba uyushmalariga birlashish orqali himoya qilishi mumkin. Aynan ushbu imkoniyat ham Konstitutsiyasining 39-moddasidagi huquq, ya'ni siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalariga birlashish erkinligi bilan ta'minlangan. Afsuski, hikoyamizning bosh qahramoni na o'z huquqlarini bilar edi, na shu huquqlarni bilmaslik unga qanchaga tushayotganidan xabardor edi. Kuni bo'yi ter to'kib ishlayotgan Jasur tezroq uyiga borib, dam olgisi kelar edi. Ammo to'satdan xo'jayini yana qo'shimcha ikki soat ishni tamoman tugatish uchun kerak ekanligi va ishchilarni hech qanday rag'bat evaziga ishdan tashqari vaqtga ishlashga majbur qildi. Ishchilaram ne qilsin, siz-u bizga o'xshagan insonda, bolalarimni rizqi deb har narsaga ko'nadi. Qaniydi shu kabi ishchilar nafaqat Konstitutsiyada, balki Mehnat kodeksida aytib o'tilgan ish vaqtdan tashqari ishlarga qo'shimch ish haqi tayinlanishini bilganlarida edi. Shunday qilib, Jasur hafsalasi pir bo'lib, 2 soat yana qora terga botdi. Uyga behol qaytib kelgach, oilasi davrasida charchog'ini ancha chiqardi. Kechroq imkoniyati cheklangan opasini ko'rib ketishga chiqdi. Borganda opasi moliyaviy jihatdan qiynalganini, yagona og'li esa unga moliyaviy ta'minot berishdan bosh tortganini aytib, jismoniy jihatdan charchagan Jasurni, hissiy jihatdan ham gaplari bilan toliqtirib qo'ydi. Huquqiy jihatdan baho beradigan bo'lsak, voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzand Konstitutsiyaning 80-moddasiga binoan ota-onasi haqida g'amxo'rlik qilishga majburdir. Aslida bu kabi normaning Konstitutsiyada namoyon bo'lishi o'zbek xalqining madaniyatining parokandalikka yuz tutganichalik. Chunki bizga yoshligimizdan ota-ona haqida g'amxo'rlik qilish har bir farzand oldida turadigan oliy burch ekanligi uqtiriladi. O'zbek axloqining tub-tubigacha singib ketgan qoidalardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Endi madaniyat kor qilmagan joyga, huquqni, qonunni ishlatamiz-da. Xo'sh, Jasur esa opasini yupatdi. Boshqa nimayam qilardi huquqiy savodxonlik hattoki o'ziniyam huquqlarini bilishga yetmaganidan keyin. Uyiga qaytgach, biroz dam olayotganida qizining Oliy Majlis haqida Konstitutsiyadan baland ovozda o'qiyotganini eshitib qoldi. Qizini diqqat bilan eshita turib, Oliy Majlis ikkita palataga bo'linishi va bugun u e'tiborisiz qoldirgan quyi palata o'ziga o'xshagan





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

oddiy aholining siyosiy irodasini ifodalashini bilib, saylovga bormaganidan afsuslandi. Qiziqqanidan qizini butun-boshli 155ta moddani ozida jam qilgan Konstitutsiyani o'qittirib chiqdi. Bugun bo'lgan voqealarning barchasi Konstitutsiyada berilgan moddalarga taalluqli bo'lganini anglab, avvalroq o'z huquqlari bilan tanishib chiqmaganidan afsuslandi. U nafaqat o'z huquqlarini, balki Jasurni qonun chizib bergan ramkada bo'lishini ta'minlovchi va mana shu ramkani chizib beruvchi organlarning faoliyati haqida bilib oldi.

Xulosa shuki, Konstitutsiya har bir fuqaroning kundalik hayotidagi ko'zga ko'rinmas qo'llanmadir. Aslini olib qaraganda, biz ertalab turganimizdan bizning huquqlarimiz ham uyg'onadi. Faqat o'sha huquqlarni bilish va, albatta, qo'llay olish bilan inson o'z-o'ziga adolatli muhitni ta'minlab bera oladi. Shuning uchun Konstitutsiyani o'qing, yaqindan tanishing, huquqlaringizni himoya qiling. Ushbu oliy hujjatni faqat huquqshunoslar o'qishi kerak emas, balki men uchun yozilgan deb qo'lingizga oling.

